

O'ZBEKISTON ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH AGENTLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Himoyaga
Kafedra mudiri

«_____»

«___» _____ 2011 y.

BAKALAVR MALAKAVIY BITIRUV

ISHI

Mavzu:

«MATLAB kompleksida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini va

elementlarini modellashtirish va dasturlash»

Bitiruvchi: _____
(imzo)

212-07 AT Siddiqov J.I.
(f. i. o)

Rahbar: _____
(imzo)

t.f.n dotsent Sapayev M.S.
(f. i. o)

XFX bo'yicha
maslahatchi _____
(imzo)

Ishmuhamedova V
(f. i. o)

Taqrizchi: _____
(imzo)

(f. i. o)

Toshkent-2011

Mazmunnoma

Malakaviy bitiruv ishidan maqsad raqamli boshqaruv tizimlarini MATLAB kompleksida modellashtirish va dasturlashni organishdir. Bu maqsadni amalga oshirishda MATLAB kompleksining Simulink paketi va uning bloklaridan keng qamrovli foydalanildi. Ushbu ishning natijalari raqamli avtomatlashtirilgan tizimlarini va elementlarini tasniflarini o'rganishda qollaniladi.

Аннотация

Целью данной выпускной квалификационной работы является изучение основ моделирования и программирования на основе комплекса программ MATLAB. Для осуществления этой цели широко использованы пакет Simulink и его блоки. Результаты данной работы будут применены при исследовании характеристик элементов и систем цифрового автоматического управления.

Abstract

The purpose of this final qualifying work is a study of basis modeling and programming on base of the complex of the programs MATLAB. Package Simulink and it blocks is used for realization of this purposes. The Results of given functioning will be aplying at study of the features element and systems digital autocontrol.

MUNDARIJA

Kirish	6
I. Raqamli boshqaruv tizimlarini taxlili.....	9
1.1 Raqamli boshqaruv tizimlarini taxlil qilish usuli	9
1.2. Raqamli boshqaruv tizimlarini strukturalari.....	10
1.3. Raqamli rostlagichlarni taxlili va ishlatilishi.....	12
II. MATLAB kompleksi va uni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini va elementlarini modellashtirish va dasturlashda qo'llash.....	16
2.1. MATLAB dasturiy paketining imkoniyatlari.....	16
2.2. Simulink da dasturlash xususiyatlari.....	19
2. 3. MATLAB bloklarii bibliotekasi.....	21
III. Raqamli tizimlarni taxlil va tadqiq qilishda MATLAB dasturini amaliy qo'llash.....	38
3.1 Raqamli boshqaruv tizimini turgunlik mezonlari asosida taxlil..	38
3.2. Raqamli boshqaruv tizimlarini modellashtirish	49
3.3. MATLAB dasturiy kompleksi asosida raqamli rostlagichlarni taxlil qilish.....	51
IV. Xayot Faoliyati Xavfsizigi.....	66
4.1 Shovqin ishlab chiqarishda zararli omil sifatida.....	66
4.2Yong'in xavfsizligi.....	69
XULOSA.....	71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	72
ILOVA.....	74

Kirish

Bitiruv malakaviy ishidan maqsad raqamli boshqaruv tizimlarini MATLAB kompleksida modellashtirish va dasturlash.

Raqamli boshqaruv tizimlarining ishlab chiqarishda avtomatlashgan boshqaruv tizimlarida keng qo'llanilishligi bilan asoslanadi. Zamonaviy boshqaruv tizimlari yuqori aniqlik, kichik o'lchamlar, kam energiya istemolini taminlovchi raqamli boshqaruv qurilmalarini qo'llashni talab qilmoqda. Ushbu bitiruv malakavish ish yuqori imkoniyatli dasturlash kompleksi bo'lgan MATLAB dasturi asosida avtomatlashgan boshqaruv tizimining yuqorida keltirilgan dolzarb masalalarini yechishga mo'ljallangan.

Jamiyat va inson faoliyati soxalarida jaronlarni boshqarishni avtomatlashtirish va axborotlashtirish dolzarb muammolardan biri xisoblanadi. Avtomatlashtirilgan tizimlar loyixalashda tadqiqotlarda va korxonalar tashkilotlarni boshqarishda hamda o'quv jarayonida keng qollaniladi. Jamiyatni axborotlashtirish korxonani unumdorligini va yangilashni asosini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning „ jahon iqtisodiyoti va moliyaviy inqirozi, uni O'zbekiston sharoitida yengish yo'llari va tadbirlari” va „ xalqning farovonligini oshirishda va mamlakatni yanada taraqqiy etishi bizning asosiy vazifamiz” nomli kitoblarida oxirgi paytda texnologiyaning dinamik taraqqiy qilganiga aloxida e'tibor berilgan. Ushbu taraqqiyot inqirozga qarshi dasturlar va tadbirlar kompleksida, texnik texnologik qaya qurish va modernizatsiya qilishda zamonaviy moslashuvchan texnologiyalarni belgilamoqda va bu jarayon mamlakatni modernizatsiyalashda muhim o'rin tutishi belgilab o'tilgan [1].

Prezidentimizning jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillarga bag'ishlangan o'zlarining „Jahon moliyaviy inqirozini O'zbekiston sharoitida bartaraf qilish chora tadbirlari” nomli asarida takidlanadiki [1]:

Hozirgi vaqtda bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelmoqda.

Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, retsessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'lamining cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda.

Ikkinchidan, avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatdi. Ayni vaqtda bu inqiroz asosan o'z korporativ manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorlarida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini ham tasdiqladi.

Ushbu sammitda bo'lib o'tgan muhokamalar shuni ko'rsatdiki, bugun jahon moliyaviy inqirozining oldini olish haqida so'z borayotgani yo'q, balki undan qanday qilib chiqish yo'llari izlanmoqda, xolos. Ya'ni, bu masalada vaziyat shu darajaga yetdiki, endi avvalgi marralarga qaytish haqida so'z yuritishga asos yo'q.

Muhokamalarda inqirozni keltirib chiqargan sabablar tahlili bo'yicha sammit ishtirokchilarining yagona yondashuvga ega emasligi, shu bois ushbu global moliyaviy inqirozning jiddiy va uzoq davom etadigan oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan umumiy va samarali dastur ishlab chiqish haqida gapirishga hali erta ekani ayon bo'ldi.

Shu bilan birga, mazkur sammitning bo'lib o'tgani, unda jahon moliya inqirozi bilan bog'liq muammolar va vujudga kelgan vaziyat muhokama qilinganining o'zi umid uyg'otadigan ijobiy hol ekani shubhasiz. Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'riladigan zararning darajasi va

ko'lamini birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q, deb o'ylayman. O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'ydik. Ushbu bitiruv malakaviy ishning asosiy maqsadini raqamli boshqaruv tizimlarini taxlil va tadqiq qilishda MATLAB dasturiy paketini qo'llash va buning natijasida keng imkoniytli raqamli boshqaruv tizimlarini hamda ularning dasturiy taminotlarini yaratish tashkil qiladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi 4 qismdan iborat bo'lib

1 – bo'limda – MATLAB dasturida avtomatlashgan boshqaruv tizimlarini modellashtirishdan iborat, masalani qo'yilishi uning vazifalari o'rganib chiqiladi.

2- bo'lim, Raqamli boshqaruv tizimlarini mezonlari va asosiy formulalar va amaliy masalar ko'rib chiqilgan.

3 – bo'limda – MATLAB kompleksining ishchi oynasi haqida batafsil ma'lumotlar va Simulink paketi imkoniyatlari keltirilgan, shuning bilan birga yechilishi lozim bo'lgan masalaga oid elementlar ko'rib chiqilgan.

4 – bo'limda ko'pyuter oldida ishlaganda xavot xavfsizligi qoidalari hususan kopyuter xonasining yoritilganligi, yoritish vositalarining turlari, favqulotda vaziyatlar ko'rib chiqilgan.

Texnik va dasturiy talablar:

- CPU P III 800 MHz ;
- OZU 256 Mb;
- HDD 2Gb;
- Video card 64Mb;
- Oc Win Xp SP2;
- MATLAB 6.5,

1. Raqamli boshqaruv tizimlarini taxlili

1. 1. Raqamli boshqaruv tizimlarini taxlil qilish usuli

Xisoblash texnikasi va yuqori darajada integrallashgan mikrosxemalarni ishlab chiqarish raqamli texnikani va boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish va qo'llashga keng imkoniyatlar yaratmoqda .

Raqamli boshqaruv tizimlarini qo'llash analog boshqarish tizimlariga nisbatan yuqori aniqlikni, ishonchlilikni, o'zini o'zi sozlay olishi va eng asosiysi boshqarish qonunlarini o'zgartirish olishlik imkoniyatlari bilan qator afzalliklarga ega.

Raqamli boshqaruv tizimlari asosida qurilgan uzluksiz avtomatik rostagichning o'rganish, ularni Matlab dasturiy kompleksida modellashtirish va dasturlash, ularni ishlash algoritmlari imkoniyatlarini tadqiq etish ushbu bitiruv malakaviy ishning asosini tashkil etadi.


Raqamli tizimlarning turg'unligi turg'unlik mezonlarining analoglari bilan belgilanib ular uzluksiz tizimlar uchun ishlab chiqilgan . Ularga Gurvits mezoni, Mixaylov mezoni, Naykvist mezoni va logarifmik mezonlarga bo'linadi

Raqamli boshqaruv tizimlaridagi o'tish jarayonlarini o'rganishda turli usullardan foydalaniadi:

- 1) Z- ifodani kirish kattaligidan topish va raqamli tizimning diskret uzatish funksiyasi asosida uning originaliga va kirish signaliga o'tish;
- 2) Psevdochastotali logarifmik tasniflarni qo'llash;
- 3) Chiqish signalining ko'rinishini Loran qatoriga yoyish;
- 4) Raqamli boshqaruv tizimlarining ildiz godografini qo'llash;
- 5) MATLAB va boshqa turdagi dasturiy komplekslarni qo'llash.


1.2. Raqamli boshqaruv tizimlarini strukturalari

Ananaviy taxlil usullarining asosida tizimning o'zgarmas berilgan struktura g'oyasi yotadi, bunda loyixachi tizimning xolatini boshqaruv jarayoni va rostlagichni etiborga olgan xolda belgilaydi. 1.1—1.4 rasmlarda tajribada keng uchraydigan raqamli boshqaruv tizimlarining struktura sxemalari keltirilgan. 1.1 rasmda analog rostlagichli raqamli tizimning strukturasi keltirilgan. Kvantlovchi qurilma tizimga kiruvchi axborot va teskari aloqa axborotini o'zaro solishtiradi, bunda teskari aloqa kanalidan raqamli yoki impuls xarakterga ega bo'lgan signallar. Bu yerda kvantlovchi qurilma chiqish signalini malum bir korinishda kodlagandan so'ng va tekislagandan so'ng amalga oshiradi. Kodlash va eksilash jarayonlarini fiksator amalga oshiradi [4-9].




1.1-rasm. Ketma-ket ulangan analog rostlagichli raqamli boshqaruv tizimi

1.2- rasmda keng qo'llaniluvchi klassik raqamli boshqaruv tizimining ko'rinishi keltirilgan bo'lib , bunda raqamli rostlagich tog'ri zanjirga joylashtirilgan.




1.2-rasm. Ketma-ket ulangan raqamli rostlagichli raqamli boshqaruv tizimi

1.3-rasmda analog rostlagich maxalliy teskari aloqa zanjiriga joylashtirish xolati korsatilgan. 1.4 rasmda 1.3 rasmga nisbatan aniq ishlovchi analog rostlagichni raqamli rostlagichga almashtirish sxemasi qo'yilgan.




1.3-rasm. Maxalliy teskari aloqa zanjiriga analog rostlagich ulangan raqamli boshqaruv tizimi




1.4-rasm . Maxalliy boshqaruv tizimi zanjiriga ulangan raqamli rostlagichli raqamli boshqaruv tizimi

Xolat muxitida tizimlarni kuchli taxlil vositasi sifatida chiqish yoki o'zgaruvchan xolat bo'yicha teskari aloqa qo'llaniladi. 1.5- rasmda ko'rsatilgan ko'p o'lchovli raqamli boshqaruv tizimini o'zgaruvchan xolat bo'yicha teskari aloqali tuzilishi ko'rsatilgan.




1.5- rasm Ko'p o'lchovli raqamli boshqaruv tizimini o'zgaruvchan xolat bo'yicha teskari aloqali tuzilishi

1.6- rasmda holat va kuzatish bo'yicha teskari aloqali kop olchovli raqamli tizimning strukturasi ko'rsatilgan, 1.7- rasmda esa chiqish bo'yicha teskari aloqali tizim ko'rsatilgan.



1.6- rasm holat va kuzatish bo'yicha teskari aloqali kop olchovli raqamli tizimning strukturasi



1.7- rasm chiqish bo'yicha teskari aloqali tizim

Umumiy xolda chiqish o'zgaruvchilarining ta'siri o'zgaruvchan xolatga nisbatan kichik qiymatni tashkil qiladi, shuning uchun xolat bo'yicha teskari aloqa chiqish bo'yicha teskari aloqaga nisbatan samaraliroq xisoblanadi.

1.3. Raqamli rostlagichlarni taxlili va ishlatilishi

Raqamli boshqaruv tizimlarini taxlil qilish turli usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu usullar klassik va xisoblash texnikasi qo'llanilgan turlarga bo'linadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishda biz raqamli tizimlarning asosi bo'lgan raqamli rostlagichlarni o'rganish bilan chegaralanamiz.

Raqamli rostlagichlarni taxlili 4 pog'onada olib boriladi.

1. Uzluksiz korreksiyalovchi qurilmaning uzatish funksiyasi bo'lgan $W_k(s)$ ni uzluksiz tizimlar uchun ishlab hiqilgan usullar bo'yicha o'rganish.

2. Korreksiyalovchi qurilmaning uzluksiz uzatish funksiyasi $W_k(s)$ dan unga ekvivalent bo'lgan diskret $W_k(z)$ euzatish funksiyasiga tasvirga yo'li bilan ketma-ket o'tish:

$$\begin{array}{ccccccc}
 W_k(s) & \xrightarrow{s \leftarrow j\omega} & W_k(j\omega) & \xrightarrow{j\omega \rightarrow j\lambda} & W_k(j\lambda) & \xrightarrow{j\lambda \leftarrow \frac{2\omega}{T_{\Pi}}} & W_k(\omega) \dots \\
 \dots & \xrightarrow{\omega \leftarrow \frac{z-1}{z+1}} & W_k(z) & & & &
 \end{array}$$

Bu yerda natijalovchi ikki chiziqli o'zgartirish formulasidan foydalaniladi :

$$s \leftarrow \frac{2}{T_{\Pi}} \cdot \frac{z-1}{z+1}$$

Bu yerda T_{Π} — EXM ning diskretlash davri.

3. Diskret uzatish funktsiyasi $W_k(z)$ ni struktura sxemasini EXM ning xotira hajmi, tezligi va nazorat qila olish imkoniyatidan kelib chiqqan holda optimallashtirish.

4. EXM uchun dastur tuzish yoki raqamli mikroshema yaratish.

Aytib o'tish kerakki uzluksiz uzatish funktsiyasidan cheksiz miqdordagi diskret uzatish funktsiyasini xosil qilish mumkin, bunda EXM ning diskretlash davri muxim ahamiyatga ega.

Odatda diskretlash chastotasini $f_{\Pi} = \frac{1}{T_{\Pi}}$ 6..10 ga teng qilib olinadi.

Kichik miqdordagi diskretlash davrida sezilarsiz yo'qotish bilan aniqlilik oshiriladi. Uzluksiz integrallash to'g'ri to'rtburchak yoki trapetsiya usuli asosida amalga oshiriladi. Bular bilan tanishib chiqamiz.

Tog'ri to'rtburchak usuli. Ushbu usuldan PID- qonun bo'yicha diskret ko'inishda uzluksiz integrallarni apraksimatsiyalash uchun foydalanamiz. :

$$u[n] = K_P \cdot \left[x[n] + \frac{T_{\Pi}}{T_I} \sum_{i=1}^{n-1} x[i] + \frac{T_D}{T_{\Pi}} (x[n] - x[n-1]) \right].$$

Natijada xosil qilingan boshqaruv algoritmi oldingi signallar xatolarini o'z ichiga olgan holda boshqaruv signali $u[n]$ ni qaytadan hisoblaydi.

Trapetsiya usuli. Uzluksiz integrallarni almashtirishda trapetsiya usulidan foydalanilganda tenglamalar orasidagi farq quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$u[n] = K_p \cdot \left[x[n] + \frac{T_U}{T_I^x} \left(\frac{x[n] - x[0]}{2} + \sum_{i=1}^{n-1} x[i] \right) + \frac{T_D^x}{T_U} (x[n] - x[n-1]) \right].$$

Taxlil ko'rsatadiki :

1. Statik xatoni kamaytirish uchun uzatish funksiyasi $z^*=1$ polyusga ega bo'lishi kerak.
2. Agar $b_2=0$, bolsa PI- rostlagichni olamiz.
3. Agar $b_0=0$ va $b_1=1+b_2$, bo'lsa propporsional differensial rostlagich olamiz.

Diskret uzatish funktsiyalarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

Algoritm 1.

$$W(z) = \frac{Y(z)}{X(z)} = \frac{b_0 + b_1 z^{-1} + \dots + b_m z^{-m}}{a_0 + a_1 z^{-1} + \dots + a_n z^{-n}} \text{ — diskret uzatish funktsiyalari uchun standart}$$

forma. .

Algoritm 2. — Z- uzatish funktsiyasini bo'luvchilarga ajratish:


$$W(z) = \frac{Y(z)}{X(z)} = \frac{K}{1 + d_1 z^{-1}} \times \frac{1 + e_2 z^{-1}}{1 + d_2 z^{-1}} \times \dots \times \frac{1 + e_n z^{-1}}{1 + d_n z^{-1}}$$

Algoritm 3. — Z- uzatish funktsiyasini quyidagi ko'rinishdagi elementar bo'luvchilarga ajratish:

$$W(z) = \frac{Y(z)}{X(z)} = \frac{P_1}{1 + d_1 z^{-1}} + \frac{P_2}{1 + d_2 z^{-1}} + \dots + \frac{P_n}{1 + d_n z^{-1}},$$


Bu yerda : e_i — z - uzatish funksiyasini nollari; d_i — z - uzatish funksiyasining qutiblari; a_0 — nolga teng emas; P_i — taqsimlash koefitsientlari.

Ushbu z - uzatish funksiyasi ko'rinishdagi formalarga 1.8-rasmda ko'rsatilgan struktura sxemalari mos keladi.




1.8-rasm. Raqamli rostlagichlarni tuzish variantlari

Ushbu tenglama uchun raqamli rostlagichning struktura sxemasini tuzamiz. (rasm. 1.9).




1.9-rasm. Raqamli rostlagich struktura sxemasi

Ushbu struktura sxemasi 1-algoritmgga mos keladi, uning fizik qo'llanilishi sharti $a_0 \neq 0$.



1.10-rasm. Raqamli rostlagichning o'zgartirilgan struktura sxemasi.



1.11-rasm.2- va 3- algoritmgacha asosan raqamli rostlagich sxemasi

2. MATLAB kompleksi va uni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini va elementlarini modellashtirish va dasturlashda qo'llash

2.1. MATLAB dasturiy paketining imkoniyatlari.

Raqamli boshqaruv tizimi, elementlari va uskunalari texnik va tadkikot xisoblari va tadkikotlarini to'la va aniq olib borish uchun zamonaviy programma komplekslaridan foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Ushbu programma komplekslaridan biri Matlab (matritsali laboratoriya) tizimi hisoblanadi. Matlab programma kompleksining tipik qo'llanilishi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- matematik xisoblar;
- algoritmlar tuzish;
- modellashtirish;
- ma'lumotlarni taxlil, tadkik va vizuallash;
- ilmiy va muxandislik grafikasi;
- grafik interfeys tuzish kabi qo'shimchalar yaratish.

Matlab programma kompleksi quyidagi 5 asosiy qismdan iborat [17-20]. :

- Matlab tili;
- Matlab muhiti;
- grafikani boshkarish;
- matematik funksiyalar kutubxonasi;
- programmali interfeys.

Raqamli boshqaruv tizimini, elementlari va uskunalari tadqiq qilish imkonini beruvchi matlab tizimiga mos keluvchi Simulink dasturi chizikli, nohiziqli dinamik tizimlarni modellashtiruvchi interaktiv tizimdir. U komp'yuter elementi bilan boshqariluvchi muhit bo'lib, raqamli boshqaruv tizimi, elementlari va uskunalari sodir bo'luvchi

Jarayonlarni diagrammalar blokini komp'yuter ekraniga o'rnatish va ularni manipulyatsiyalash bilan modellashtirish imkonini beradi.

Blocksets dasturi Simulink dasturiga qo'shimcha bo'lib, raqamli boshqaruv tizimi, elementlari va uskunalari ma'lumotlari bilan ta'minlab beruvchi maxsus ilovalar kutubxonasi blokidir.

real-time-workshop dasturi turli tizimlar, elementlar va uskunalari uchun s kod bilan diagrammalar blokini ishlab chikuvchi va real vaktida ularni ishga tushiruvchi dasturdir.

Matlab tizimi asosida tajriba stendlarini yaratish uslubiyati mavjud klassik yondoshuvlarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- matlab tizimi dasturlarda modellashtirilgan raqamli boshqaruv tizimi elementlari, uskunalari va

Kurilmalarini bloklaridan umumli foydalanish imkonini beradi;

- raqamli boshqaruv tizimi elementlari, uskunalari va kurilmalarida borayotgan jarayonlar real vakt

Mobaynida kuzatiladi va taxlil kilinish imkonini beradi;

- o'rganilayotgan elektr energetikasi tizimi elementlari, uskunalari va kurilmalari barcha xisobiy va loyixa

Kattalıkları va parametrlari bilan tadqiqot mobaynida ishtirok etadi;


- raqamli boshqaruv tizimi elementlari, uskunalari va kurilmalarini sxemalarini yig'ish jarayoni blocksets dasturi imkoniyatlari hisobiga imkon darajasida soddalashtirilgan.

2.2. Simulink da dasturlash xususiyatlari


Simulink bibliotekasi quyidagi bolimlarni o'z ichiga oladi:

- Continuous – chiziqli bloklar.
- Discrete – diskret bloklar.
- Functions & Tables – funktsiyalar va tablitsalar bloki.
- Math – matematik amallar bloki.
- Nonlinear – nochiziqli bloklar.
- Signals & Systems – signallar va tizimlar.
- Sinks – ro'yxatga oluvchi qurilmalar.
- Sources — signallar va tasirlar manbalari.
- Subsystems – kichik sistemalar bloki.

Simulink bibliotekasi bo'limlari ro'yhati daraxt ko'rinishida tasvirlanib u bilan ishlayotganda sichqonchaning chap va ong klavishlari qo'llaniladi. Bibliotekaning mos bo'limi tanlanayotganda uning o'ng oynasida biblioteka malumoti darchasi paydo bo'ladi(rasm. 2.1).



2.1-rasm. Biblioteka bo'limlarining bloklarini terish oynasi



2.2-rasm. Biblioteka bo'limlarini uskunalar paneli

Oyna bilan ishlashda menyuda yig'ilgan komandalardan foydalaniladi. Biblioteka menyusi quyidagi punktlarni o'z ichiga oladi:

File (Файл) — Biblioteka fayllari bilan ishlash.

Edit (Редактирование) — Bloklar qo'shish va ularni qidirish.

View (Вид) — Interfeys elementlarini ko'rsatgichini boshqarish.

Help (Справка) — Biblioteka malumotlarini oynaga chiqarish .

Simulink bilan ishlashda 2.2-rasmda keltirilgan uskunalar panelidagi knopkalardan ham foydalanish mumkin.

2. 3. MATLAB bloklarii bibliotekasi

Raqamli boshqaruv tizimi, elementlari va uskunalari texnik va tadkikot xisoblari va tadkikotlarini to'la va anik olib borish uchun zamonaviy programma komplekslaridan foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Ushbu programma komplekslaridan biri MATLAB (matriksali laboratoriya) tizimi hisoblanadi. MATLAB programma

kompleksining tipik qo'llanilishi quyidagilarda o'z aksini topadi:

- matematik xisoblar;
- algoritmlar tuzish;
- modellashtirish;
- ma'lumotlarni taxlil, tadkik va vizuallashtirish;
- ilmiy va muxandislik grafikasi;
- grafik interfeys tuzish kabi qo'shimchalar yaratish.

MATLAB programma kompleksi quyidagi 5 asosiy qismdan iborat:

- MATLAB tili;
- MATLAB muhiti;
- grafikani boshkarish;
- matematik funksiyalar kutubxonasi;
- programmali interfeys.

Raqamli boshqaruv tizimini, elementlari va uskunalari tadkik qilish imkonini beruvchi MATLAB tizimiga mos keluvchi Simulink dasturi chizikli, nochizikli dinamik tizimlarni modellashtiruvchi interaktiv tizimdir. U kompyuter elementi bilan boshkariluvchi muhit bo'lib, raqamli boshqaruv tizimi, elementlari va uskunalari sodir bo'luvchi jarayonlarni diagrammalar blokini kompyuter ekraniga o'rnatish va ularni manipulyatsiyalash bilan modellashtirish imkonini beradi.

Blocksets dasturi Simulink dasturiga qo'shimcha bo'lib, raqamli boshqaruv tizimi, elementlari va uskunalari ma'lumotlari bilan ta'minlab beruvchi maxsus ilovalar kutubxonasi blokidir. Real-Time-Workshop dasturi turli tizimlar, elementlar va

uskunalar uchun S kod bilan diagrammalar blokini ishlab chikuvchi va real vaktida ularni ishga tushiruvchi dasturdir.

Function & Tables – funksiya va tablitsalar bloki

1 Fcn funksiyani berilish bloki

Vazifasi:

C dasturiy tilda ma'lumotlar beriladi.

Parametrlar:

Expression – ifoda kirish signali asosida chiqish signalini belgilaydi.

Ifodada quyidagi komponentlardan foydalanish mumkin:

1. Kirish signal. Agar kirish signal skalyar bolsa - u deb belgilanadi.
2. Agar kirish signali – vektor, vektor elementi raqamini albatta aylana qavs ichida ko'rsatish kerak.
3. Masalan, $u(1)$ va $u(3)$ – birinchi va uchinchi elementlar kirish vektorini ifodalaydi.
4. O'zgarmlar.
5. Arifmetik operatorlar (+ - * /).
6. Aloqa munosabatlari operatorlari (= != > < >= <=).
7. Mantiq operatorlar (&& || !).
8. Aylana qavs.
9. Matematik funksiyalar: abs, acos, asin, atan, atan2, ceil, cos, cosh, exp, fabs, floor, hypot, ln, log, log10, pow, power, rem, sgn, sin, sinh, sqrt, tan, va tanh.
10. Ishi sohadagi o'zgaruvchilar.
11. Masalan, $A(1,1)$ - Matritsaning birinchi elementi A.

Aloqa munosabatlari operatorlari va mantiq operatorlar, mantiq nol ko'rinishidagi (FALSE) yoki mantiq bir (TRUE) ko'rinishdagi operatorlar mavjud.


Ifodalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan operatorlar quydagi ko'rinishga ega(prioritet):

1. ()
2. + - (unar)
3. darajaga ko'tarish
4. !
5. /
6. + - (binar)
7. > < <= >=
8. = !=
9. &&
- 10.||

Blok matritsa va vektor jarayonlarini qo'llamaydi.

Blokning chiqish signali xar doim – skalyar.

Misol Fcn blokidan foydalanish 1 rasmda ko'rsatilgan



1 – rasm . Fcn blokidan foydalanish.

2. MATLAB Fcn funksiyasini berilish bloki:

Vazifasi:

MATLAB dasturiy tilda ifodalar beriladi.

Parametrlar:

1. MATLAB function - MATLAB tilidagi ifoda.
2. Output dimensions – chiqish signalining o'lchami. Parametr miqdori –1
3. (minus – 1) blokga o'lchamni avtomatik aniqlashni taminlaydi.
4. Output signal type – Chiqish signalining tipi. Quyidagi ro'yhatdan tanlanadi:
 - o real – Haqiqiy signal.
 - o complex – Kompleks signal.
 - o auto – Avtomatik aniqlanuvchi signal.
5. Collapse 2-D results to 1-D – Ikki o'lchvli chiqish signalini bir o'lcholikga o'zgartirish.

Agar kirish signali u ko'rinishda belgilansa u skalyardir. Agar kirish signali vector bo'lsa, vektor elementi nomerini aylana qavs ichida ko'rsatish zarur. Misol, u(1) va u(3) – kirish vektorining birinchi va uchinchi elementlari.

Agar ifoda bir funksiyadan iborat bo'lsa u holda uni parametrini ko'rsatmagan holda berish mumkin. Ifodalar yana foydalanuvchining hususiy funksiyasini ko'rsatishi mumkin, MATLAB tilida yozilgan va m-fayl ko'rinishida ifodalangan.

m-faylning nomi modelning nomi bilan mos kelmasligi kerak (mdl-fayl).

2 - rasmda MATLAB Fcn blokining ko'rinishi keltirilgan.


Misolda My_Matlab_Fcn_1, funksiyadan foydalaniladi va u kirish vektorining ikki ekementini ko'paytmasi va yig'indisini ko'rsatadi.

Funksiyaning teksti quyida keltirilgan (fayl My_Matlab_Fcn_1.m):

```
function y=My_Matlab_Fcn_1(x,k);
y(1)=x*k;
y(2)=x + k;
```

MATLAB function, funksiyani ifodasini chaqirish uchun berilgan parametrlar quyidagi

ko'rinishga ega bo'ladi: $My_Matlab_Fcn_1(u(1),u(2))$.



2 - rasm MATLAB Fcn blokidan foydalanishga misol.

3. Polynomial darajali ko'phadning berilish bloki:

Vazifasi:

Darajali ko'phadni beradi.

Parametrlari:

Polynomial coefficients – Polinomning koefitsiyentlar vektori.

Vektorda koefitsiyentlar mustaqil koefitsiyentlarning darajasini pasayishi ko'rinishida berilgan.

Misol , x^2+2x+5 – polinom uchun koefitsiyentlar vektorini $[1\ 2\ 5]$ – ko'rinishda berish kerak.


Koefitsiyentlar haqiqiy ko'rinishda bo'lishi kerak.

Blok polinomning miqdorini uning koefitsiyenti va kirish signalining kattaligi bo'yicha hisoblaydi.

Agar kirish signali vekto yoki matritsa ko'rinishida bo'lsa u holda blok massivning xar bir elementi uchun hisoblarni amalgam oshiradi.

3 – rasmda Polynomial blokini foydalanish misoli ko'rsatilgan.

Misollarda birinchi polinom blok uchun koefitsiyentlar [1 2 5], vector ko'rinishida, ikkinchisi uchun esa – [1 2 0 5] ko'rinishida berilgan.



3 - rasm . Polynomial blokidan foydalanishga misol.

4 Look-Up Table bir o'lchovli tablitsa bloki.

Vazifasi:

Bir o'zgaruvchining funksiyasini tablitsa ko'rinishini beradi.

Parametrlar:

1. Vector of input values – Kirish signalining miqdorining vektori.

Masalan u diskret miqdorlar ko'rinishida – (misol, [1 2 7 9]),

yoki uzluksiz diapazon ko'rinishida beriladi. (misol, [0:10]).


2. Vektor elementlari yoki o'zgarish diapazoni ifoda korinishida berilishi mumkin

masalan [tan(5) sin(3)].

Vector of output values – kirish vektorining qiymatiga mos chiqish vektorining qiymati.

4 - rasmda Look-Up Table blokidan foydalanishga misol keltirilgan.

Misol [-5:5] - kirish vektorining miqdorlari vektori, $\tanh([-5:5])$ esa chiqish vektorini miqdorlari.



4 – Rasm. Look-Up Table blokidan foydalanishga misol.

5. Look-Up Table(2D) ikki o'lchovli tablitsa bloki

Vazifasi:

Ikki o'zgaruvchining funksiyasini tablitsa ko'rinishida beradi.

Parametrlari:

1. Row – Birinchi argumentning Vektor qatori miqdorlari.

Vector of input values- bir o'lchovli tablitsa ko'rinishida beriladi.

Vektorning elementlari ortib borishi ko'rinishida tartiblangan bo'lishi kerak.

2. Column – Ikkinchi argumentning ustun vektori miqdorlari oldingi parametrga mos ko'rinishda beriladi.

3. Table – Funksiya qiymatlari tablitsasi matritsa ko'rinishida beriladi.
 Qatorlar soni vector Row, ning elementlar soniga teng bo'lishi kerak.
 Ustunlar soni esa vector Column. Ning elementlar soniga teng bo'lishi kerak.

Funksiyaning miqdorlarini formalash 1 jadvalda keltirilgan.

Jadval - 1.

		Ikkinchi argument (Column)		
		3	7	9
Birinci argument (Row)	2	10	20	30
	4	40	50	60
	8	70	80	90

Keltirilgan tablitsa uchun blok parametrlari miqdorlari quydagicha hosil qilingan:


Row – [2 4 8] ,

Column – [3 7 9] ,

Table – [10 20 30;40 50 60;70 80 90] .

5 - rasmda Look-Up Table(2D) blokidan foydalanish misoli keltirilgan.

Blokning parametrlari tablitsa 1 ga mos keladi.



5 - rasm Look-Up Table(2D) blokidan foydalanishga misol

6. Look-Up Table (n-D) Ko'p o'lchovli tablitsa bloki.

Vazifasi:

Ko'p o'zgaruvchilarning funksiyasi tablitsa ko'rinishida beriladi.

Parametrlar:

1. Number of table dimensions – Tablitsaning o'lchovlari soni (Funksiya argumentlari).

Parametrlarining miqdorlari quyidagi ro'yhatdan olinadi: 1, 2, 3, 4, More...(va boshqalar).

2. First input (row) breakpoint set – Birinchi argumentning vector qiymatlari (qator).

Ikki o'lchovli tablitsaning parametric Row Ko'rinishida beriladi.

3. Second (column) input breakpoint set – Ikkinchi argumentning vector qiymatlari (ustun).

Oldingi parametrga mos holda beriladi.

4. Third input breakpoint set – Uchinchi argumentning vector qiymatlari.

Agar tablitsaning olchami soni 2 dan ortiq bolsa parametr foydalanarli boladi.

5. Fourth input breakpoint set – To'rtinchi argumentning vector qiymatlari.

Agar tablitsaning olchami soni 3 dan ortiq bolsa parametr foydalanarli boladi.

6. Fifth..Nth input breakpoint sets (cell array) – 5 va undan ortiq qiymatlar massivi

(yacheykalar massivi). Agar tablitsaning olchami soni 4 dan ortiq bolsa parametr foydalanarli boladi.

7. Explicit number of dimensions – Tablitsa o'lchamlarining aniq soni.(Funksiya argumenti).

Agar parametr Number of table dimensions More qiymatga ega bo'lsa foydalanishga berilgan bo'lsa

qo'llaniladi.

8. Index search method – Indekslar bo'yicha qidiruv usuli ro'yhat bo'yicha olinadi:

- Evenly Spaced Points – bir hil orqada qoluvchi indekslar uchun qidiriladi,
- Agar argumentlar vektori bir – birlaridan bir hil miqdorda farq qilsa (misol:, [10 20 30]).
- Linear Search – Chiziqli qidiruv.
- Binary Search – Ikkilangan qidiruv.

9. Begin index searches using previous index results (Bayroqcha) – Oldingi qidiruv natijalarini

hisobga olgan holda qidiruvni boshlash.

10. Use one (vector) input port instead of N ports (Bayroqcha) – Bir necha bir o'lchovli kirish

o'rniga bitta ko'p o'lchovli kirishdan foydalanish.

11. Table data – Funksiya qiymatlari tablitsasi.

12. Interpolation method – Interpolyatsiya usuli.

- None – Interpolyatsiya bajarilmaydi.
- Linear – Chiziqli interpolyatsiya.

- Cubic Spline – Kubik splayn - interpolyatsiya.

13. Extrapolation method – Ekstrapolyatsiya usuli.

14. Action for out of range input – Kirish signalining berilgan funksiya argumentidan chetga


chiqish reaksiyasi:

- None – Reaksiya yo'q.
- Warning – MATLAB komanda qatorida ogohlantirish ma'lumotini chiqishi.
- Error – MATLAB komanda qatorida xato ma'lumotini chiqishi va hisoblashni to'xtatilishi

Look-Up Table (n-D) blokining ikki argument uchun ko'rinishi 9 - rasmda berilgan.

Blokning parametrlarini berilishi tablitsa 1da berilgan.

Chiqish kattaliklarini hisoblash uchun kubik splayn – interpolyatsiya berilgan.



6. Look-Up Table (n-D) blokidan foydalanishga misol.

7. Direct Loop-Up Table (n-D) to'g'ridan - to'g'ri kirish blok tablitsasi.

Vazifasi:

Ko'p o'lchovli tablitsani uni elementlariga to'g'ridan - to'g'ri bog'laydi.

Elementlarning indeksatsiyasi

noldan boshlanadi

Parametrlari:

1. Number of table dimensions – Tablitsaning o'lchovlari soni (Funksiya argumentlari).

Parametrlarining miqdorlari quydagi ro'yhatdan olinadi: 1, 2, 3, 4, More...(va boshqalar).

2. Explicit number of dimensions – Tablitsa o'lchamlarining aniq soni.(Funksiya argumenti).

Agar parametr Number of table dimensions More qiymatga ega bo'lsa foydalanishga berilgan bo'lsa

qo'llaniladi.

3. Inputs select this object from table – Kirish signalining turini aniqlash. Bu quydagi ro'yhatdan tanlanadi.

Element – Element. Agar blokning chiqishida tablitsaning alohida elementini hosil qilish kerak bo'lsa u holda blokning kirishiga barcha elementlarning indeksleri berilishi shart.

- Column –Ustun.
- D Matrix – Matritsa.

4. Make table an input – Funksiyaning tablitsa qiymatlari alohida kirish bloki tomonidan belgilanadi.


Table data bloki orqali emas.

5. Table data – Funksiyaning qiymatlari. Ko'p o'lchovli massiv sifatida shakllantiriladi.
6. Action for out of range input – Argumentning vector qiymatlari chegarasidan tashqaridagi kirish signallariga chiqishning reaksiyasi:

- None – reaksiya yo'q.
- Warning – MATLAB komanda qatorida ogohlantirish ma'lumotini chiqishi.
- Error – MATLAB komanda qatorida xato ma'lumotini chiqishi va hisoblashni to'xtatilishi

Look-Up Table (n-D) blokining ikki argument uchun ko'rinishi 10 - rasmda berilgan.

Blokning parametrlarini berilishi tablitsa 1da berilgan. Misol uchun ([10 20 30;40 50 60;70 80 90])



7. Direct Loop-Up Table (n-D) blokidan foydalanishga misol.

8. PreLook-Up Index Search – Indekslar bilan ishlash bloki:

Vazifasi:

Indeksning miqdorini va kirish signalining nisbiy qiymatini hisoblatdi.

Interpolation (n-D) using PreLook-Up Blok bilan birgalikda ishlatiladi.

Parametrlar:

1. Breakpoint data – Tugun nuqtalari vektori. Ushbu parametr tablitsa funksiyasi blokining kirish

signali vektori bilano'xshash.

2. Index search method - Indekslar bo'yicha qidiruv usuli ro'yhat bo'yicha olinadi:

- Evenly Spaced Points – Bir hil orqada qoluvchi indekslar uchun qidirish.
- Linear Search – Chiziqli qidiruv.
- Binary Search – Ikkilangan qidiruv.

3. Begin index search using previous index result (bayroqcha) – Oxirgi natijali indeksdan boshlab qidirish.

4. Output only the index (bayroqcha) – faqat indekslarni chiqarish.

5. Process out of range input – Berilgan chegaradagi kirish signalining chiqishga nisbatan jarayon turi.

Ro'yhatdan tanlanadi:

- Clip to Range – Chegaraviy miqdorlarni cheklash.
- Linear Extrapolation – Chiziqli ekstrapolyatsiya.

6. Action for out of range input – Tugunli nuqtalar vektori chegarasidan tashqaridagi kirish signaliga chiqish signalining reaksiyasi

Ro'yhatdan tanlanadi:

- None – Reaksiya yo'q.
- Warning – MATLAB komanda qatorida ogohlantirish ma'lumotini chiqishi.
- Error – MATLAB komanda qatorida xato ma'lumotini chiqishi va hisoblashni to'xtatilishi.

Blokning chiqish signali bo'lib vector hisoblanadi, vektorning birinchi elementi – topilgan indeks ikkinchisi – kirish signalining nisbiy qiymati.

Kirish signalining nisbiy kattaligi mos holda quydagi ifodadan hisoblanadi:

$$h = \frac{x - A(i)}{A(i+1) - A(i)},$$


Bu yerda

x – kirish signali,

i – topilgan indeks,

A – tugun nuqtalari vektori.

Blokning ishini ko'rsatish misoli 8 rasmda berilgan.



8.PreLook-Up Index Search blokidan foydalanishga misol.

9. Interpolation (n-D) using PreLook-Up Tablitsali funksiyani interpolyatsiyalash bloki.

Vazifasi:

Tablitsali funksiyaning qiymatlarini indeksning va kirish signalining nisbiy qiymati kattaligida hisoblaydi.

PreLook-Up Index Search – bloki bilan birgalikda ishlatiladi.

Parametrlar:

4. Tablitsaning o'lchovlari soni (Funksiya argumentlari).

Parametrlarining miqdorlari quydagi ro'yhatdan olinadi: 1, 2, 3, 4, More...(va boshqalar).

5. Explicit number of dimensions – Tablitsa o'lchamlarining aniq soni.(Funksiya argumenti).

Agar parametr Number of table dimensions More qiymatga ega bo'lsa foydalanishga berilgan bo'lsa qo'llaniladi.

6. Inputs select this object from table – Kirish signalining turini aniqlash. Bu quydagi ro'yhatdan tanlanadi.

Element – Element. Agar blokning chiqishida tablitsaning alohida elementini hosil qilish kerak bo'lsa u holda blokning kirishiga barcha elementlarning indeksleri berilishi shart.

- Column –Ustun.
- D Matrix – Matritsa.

7. Make table an input – Funksiyaning tablitsa qiymatlari alohida kirish bloki tomonidan belgilanadi.


Table data bloki orqali emas.

8. Table data – Funksiyaning qiymatlari. Ko'p o'lchovli massiv sifatida shakillantiriladi.

9. Action for out of range input – Argumentning vector qiymatlari chegarasidan tashqaridagi kirish signallariga chiqishning reaksiyasi:

- None – reaksiya yo'q.
- Warning – MATLAB komanda qatorida ogohlantirish ma'lumotini chiqishi.

Error – MATLAB komanda qatorida xato ma'lumotini chiqishi va hisoblashni to'xtatishi. Blokning ishi 9 rasmda ko'rsatilgan. Funksiyaning qiymatlari tablitsa ko'rinishida quydagicha berilgan [10 20 30;40 50 60;70 80 90].



9. Interpolation (n-D) using PreLook-Up blokidan foydalanishga misol.

Function & Tables bo'lim bibliotekasi yana ikki blokdan - S-Function va

S-Function Builder lardan iborat.

3. Raqamli tizimlarni taxlil va tadqiq qilishda MATLAB dasturini amaliy qo'llash

3.1. Raqamli boshqaruv tizimini turgunlik mezonlari asosida taxlil.

Barqarorlik raqamli tizim ishga yaroqliligini ko'rsatuvchi birinchi shartdir. Nobarqaror tizimni rostdash tizimsi yordamida barqaror qilish mumkin. Aytib o'tilganidek, barqarorlikning zarur va etarli sharti uzatish funksiyasining qutblari yoki xarakteristik tenglama barcha ildizlari xaqiqiy qismlarining mavhumligidir:

$$W_p(p) = \frac{K(p)}{D(p)} ; \quad D(p) = 0 \text{ (ochiq tizim)}$$

$$W_s(p) = \frac{K(p)}{K(p) + D(p)} ; \quad A(p) = K(p) + D(p) = 0 \text{ (yopiq tizim)}$$

Xarakteristik tenglama ildizlarini topish ma'lum bo'lgan algebraik tenglamani echish qiyinchiliklari bilan bog'liq. Ma'lumki 4-darajadan yuqori darajali tenglamalarni analitik ko'rinishda echish mumkin emas. Shuni hisobga olgan holda xarakteristik tenglama ildizlarini kompleks sonlar tekisligida mavhum sonlar o'qiga nisbatan joylashishini, shu tenglamani echmasdan, ya'ni ildizlar son kiymatlarini topmasdan, aniqlash juda qulay hisoblanadi.

Ildizlarni mavhum sonlr o'qiga nisbatan joylashishini aniqlaydigan qoidalar barqarorlik kriteriyalari deyiladi. Avtomatik boshqarish nazariyasida uchta barqarorlik kriteriysi mavjud: Raus - Gurvisning algebraik kriteriysi, Mixaylov va Naykvistning chastotali kriteriyalari. Barcha kriteriylar matematik jihatdan teng kuchli va xarakteristik tenglama ildizlari chap yarim tekislikda yotadimi yuqmi degan savolga javob beradi. Biroq bu kriteriylarning asosiy afzalligi faqat bundagina emas. Bu kriteriylar nobarqarorlikning asosiy sabablarini tushuntirib berish, tizim parametrlarini (yoki xarakteristik tenglama koeffisientlarini) barqarorlikka ta'sirini o'rganish, hamda o'rganilayotgan parametrlar fazosida yoki tekisligida barqarorlik sohalarini aniqlash imkonini beradi.

GURVISNING BARQARORLIK KRITERIYSI

Raus (1877y.) va Gurvis (1895y.) ning algebraik kriteriysi o'zaro bog'liq bo'lib, tizimlar barqarorligini analiz qilishda bir xil algebraik tengsizliklarga olib keladi. Gurvis kriteriysini ko'rib chiqamiz.

Agar quyidagi xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin:

$$A(p) = a_n p^n + a_{n-1} p^{n-1} + \dots + a_0 = 0.$$

Tenglama koeffisientlaridan Gurvis aniqlovchisini tuzamiz:

$$\Delta_n = \begin{vmatrix} a_{n-1} & a_{n-3} & a_{n-5} & & & & 0 \\ a_n & a_{n-2} & a_{n-4} & & & & 0 \\ 0 & a_{n-1} & a_{n-3} & & & & 0 \\ a_{n-1} & a_{n-3} & a_{n-5} & & & & 0 \\ 0 & & 0 & a_{n-1} & & & 0 \\ 0 & & 0 & 0 & & a_3 & a_1 & 0 \\ 0 & & 0 & 0 & & a_4 & a_2 & a_0 \end{vmatrix}$$

Aniqlovchini tuzish qoidasi uning strukturasi ko'rinadi. Aniqlovchi n ta qator va n ta ustundan iborat.

So'ngra esa aniqlovchining asosiy diagonal' minorlari tuziladi:

$$\Delta_1 = a_{n-1}; \quad \Delta_2 = \begin{vmatrix} a_{n-1} & a_{n-3} \\ a_n & a_{n-2} \end{vmatrix}; \quad \Delta_3 = \begin{vmatrix} a_{n-1} & a_{n-3} & a_{n-5} \\ a_n & a_{n-2} & a_{n-4} \\ 0 & a_{n-1} & a_{n-3} \end{vmatrix} \text{ v ax.k.}$$

Gurvis kriteriysi quyidagicha ta'riflanadi: chiziqli AVS (ARS) barqaror bo'lishi uchun $a_n > 0$ va barcha diagonal' minorlar noldan katta, ya'ni $\Delta_k > 0$ bo'lishi kerak, bu erda $1 \leq k \leq n$.

$n = 1 \div 4$ bo'lgan holatlarni batafsilroq ko'rib chiqamiz:

1) $n=1, \quad a_1 p + a_0 = 0.$

Barqarorlik sharti: $a_1 > 0; \quad \Delta_1 = a_0 > 0.$

2) $n=2, \quad a_2 p^2 + a_1 p + a_0 = 0.$

Barqarorlik sharti: $a > 0$; $\Delta_1 = a_1 > 0$; $\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_1 & 0 \\ a_2 & a_0 \end{vmatrix} = a_1 a_0 > 0$ yoki

boshqacha aytsak::

$$a_2 > 0 ; \quad a_1 > 0 ; \quad a_0 > 0 .$$

$$3) n=3, \quad a_3 p^3 + a_2 p^2 + a_1 p + a_0 = 0 .$$

Barqarorlik sharti: $a_3 > 0$; $\Delta_1 = a_2 > 0$;

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_2 & a_0 \\ a_3 & a_1 \end{vmatrix} = a_2 a_1 - a_3 a_0 > 0 ; \quad \Delta_3 = \begin{vmatrix} a_2 & a_0 & 0 \\ a_3 & a_1 & 0 \\ 0 & a_2 & a_0 \end{vmatrix} = a_0 \Delta_2 > 0 .$$

Δ_2 ning ifodasidan ko'rinadiki, $a_1 > 0$ bo'lishi kerak, o'z navbatida $\Delta_3 > 0$ bo'lishi faqat $a_0 > 0$ holatida bajariladi.

Shunday qilib, uchinchi darajali tizim uchun Gurvis kriteriysi quyidagi shartlar bilan xarakterlanadi:

$$a_3 > 0 ; \quad a_2 > 0 ; \quad a_1 > 0 ; \quad a_0 > 0 ; \quad a_2 a_1 - a_3 a_0 > 0 .$$

$$4) n=4, \quad a_4 p^4 + a_3 p^3 + a_2 p^2 + a_1 p + a_0 = 0 .$$

Barqarorlik sharti: $a_4 > 0$; $\Delta_1 = a_3 > 0$;

$$\Delta_2 = \begin{vmatrix} a_3 & a_1 \\ a_4 & a_2 \end{vmatrix} = a_3 a_2 - a_4 a_1 > 0 ;$$

$$\Delta_3 = \begin{vmatrix} a_3 & a_1 & 0 \\ a_4 & a_2 & a_0 \\ 0 & a_3 & a_1 \end{vmatrix} = a_1 (a_3 a_2 - a_4 a_1) - a_3^2 a_0 > 0 ;$$

$$\Delta_4 = a_0 \Delta_3 > 0 .$$

Agar $a_0 > 0$ bo'lsa, $\Delta_3 > 0$ bo'lgan holda $\Delta_4 > 0$ sharti bajariladi.

Agar $a_1 > 0$ bo'lsa, $a_0 > 0$ va $\Delta_2 > 0$ bo'lgan holda $\Delta_3 > 0$ sharti bajariladi.

Agar $a_2 > 0$ bo'lsa, $a_3 > 0$, $a_4 > 0$, $a_1 > 0$ bo'lgan holda $\Delta_2 > 0$ sharti bajarilishi mumkin.

Shunday qilib to'rtinchi darajali tizim uchun Gurvis kriteriysi quyidagi talablarni qo'yadi:

$$a_4 > 0 ; \quad a_3 > 0 ; \quad a_2 > 0 ; \quad a_1 > 0 ; \quad a_0 > 0 ; \quad a(a_3 a_2 - a_4 a_1) - a_3^2 a_0 > 0 .$$

Bundan ko'rinadiki, 1- va 2- tartibli xarakteristik tenglamalar bilan xarakterlanuvchi tizimlarning barqarorlik sharti xarakteristik tenglamaning barcha koeffitsientlari musbat bo'lishini talab qilsa, 3- va 4- darajali tizimlar uchun esa qo'shimcha ravishda Δ_{n-1} (ya'ni Δ_2 va Δ_3) aniqlovchini ham musbat bo'lishi talab qilinadi.

MIXAYLOV BARQARORLIK KRITERIYSI

Mixaylov kriteriysi 1938 yilda taklif qilingan bo'lib, uning asosida kompleks o'zgaruvchanli funksiyalar nazariyasida ma'lum bo'lgan argument prinsipi yotadi.

Argument prinsipi

Quyidagi xarakteristik tenglama berilgan bo'lsin:

$$A(p) = a_n p^n + a_{n-1} p^{n-1} + \dots + a_0 = 0 .$$


$A(p)$ polinomini quyidagicha tasvirlash mumkin

$$A(p) = a_n (p - p_1)(p - p_2) \dots (p - p_n) , \quad \text{zde bu erda } p_i - A(p)=0 \text{ tenglamaning}$$

ildizlari $p=j\omega$ desak, u holda:

$$A(j\omega) = a_n (j\omega - p_1)(j\omega - p_2) \dots (j\omega - p_n) , \quad \text{zde } (j\omega - p_i) - \text{oxirlari mavhum}$$

sonlar o'zining $j\omega$ nuqtasida yotuvchi kompleks sonlar tekisligidagi vektorlardir.



$A(j\omega)$ kompleks sonining argumenti:

$$\arg A(j\omega) = \sum_{i=1}^n \arg(j\omega - p_i), \quad \text{argument}$$

$A(j\omega)$ ning $\omega -\infty$ dan $+\infty$ gacha o'zgarandagi

o'zgarishi $\arg A(j\omega) = \sum_{i=1}^n \arg(j\omega - p_i)$ ga

teng bo'ladi

$(j\omega - p_i)$ vektorlar argumentlarining

o'zgarishi, p_i ildizlar qaysi (o'ng yoki chap) yarim tekislikda yotishiga bog'liq.

Ildiz chap yarim tekislikda joylashgan:

$$\Delta_{\infty < \omega < +\infty} \arg(j\omega - p_i) = +\pi$$

Ildiz o'ng yarim tekislikda joylashgan:

$$\Delta_{\infty < \omega < +\infty} \arg(j\omega - p_i) = \pi$$

Agar, $A(R)$ tenglama o'ng yarim tekisligida m ta va chap yarim tekislikda n ta ildizga ega bo'lsa, u holda argumentdan o'zgarishi

$$\Delta_{\infty < \omega < +\infty} \arg A(j\omega) = \pi(n - m - m) = \pi(n - 2m).$$

Bu ifoda argument prinsipining $A(R)$

xarakteristik polinom uchun yotilishidan iborat, ya'ni $\infty < \omega < \infty$ ga mos keluvchi $A(j\omega)$ argumentinnig o'zgarishi chap va o'ng yarim tekisligidagi ildizlar soni farqini π ga ko'paytirilganiga teng.

Mixaylov kriteriyasi argument prinsipiga asoslangan bo'lib, uning grafik ko'rinishidagi talqinidan iborat, ya'ni faqat bitta $A(R)$ xarakteristik polinom ko'rib chiqiladi.

Bundan kelib chiqqan holda, tizim barqaror bo'lsa ($m=0$), argumentnnig o'zgarishi:

